

**Virusologiya ITIda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning
ishlash tartibi to'g'risida**

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldag'i "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldag'i "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-sun Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdag'i "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-sun qarori va boshqa shu sohani tartibga soluvchi normativhuquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Ushbu Nizom Virusologiya ITI monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritish va monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalilanildi:

monopoliyaga qarshi kurashish organi – O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari;

monopoliyaga qarshi komplaens – faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash, huquqbazarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi;

monopoliyaga qarshi komplaens to'g'risidagi hisobot – Institutda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini tashkil etish haqidagi axborotni o'z ichiga oladigan hujjat;

vakolatli shaxs (bo'lim) – monopoliyaga qarshi komplaens tizimini ishlab chiqish, joriy etish va uning tegishli monitoringini, shuningdek, faoliyatini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan alohida tarkibiy bo'lim yoki shaxs;

savdolar – tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog'liq bo'lgan taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

3. Quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

Institutda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta‘minlash va monitoring qilish;

Institutning faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda rahbarlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

Institutda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini ishlash samaradorligini baholash va ta‘minlash;

Institut xodimlarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ularning malakasini oshirish yuzasidan o‘qitish yo‘li bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

II. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish.

4. Institutda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini ishlab chiqish, joriy etish va uning tegishli monitoringini, shuningdek, faoliyatini ta‘minlash uchun Institutning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi vakolatli bo‘lim etib belgilanadi.

5. Vakolatli shaxs (bo‘lim) quyidagilarni amalga oshiradi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qilish;

faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (*shu jumladan, raqobatni*

va (yoki) iste‘molchilarining huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan choralarini ishlab chiqish;

raqobat cheklarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining faoliyat yuritishi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha boshqa tuzilmaviy bo‘limlar bilan o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilish bilan bog‘liq ichki o‘rganish ishlarini tashkil etish;

monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo‘yicha o‘zaro axborot almashish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini

kamaytirish maqsadida bir yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlarni monitoring qilish, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash, xavflar bilan bog‘liq holatlar hisobini yuritish va yuzaga kelish ehtimolini belgilash;

Institutning faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Institut xodimlariga raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar berish;

monopoliyaga qarshi komplaens masalalari bo‘yicha muntazam ravishda treninglar o‘tkazish;

Institut tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning loyihamini o‘rganish va raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish;

Institut va uning bo‘limlarida monopoliyaga qarshi komplaens tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkil etish; har yili 1 fevralga qadar monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotni rahbariyatga tasdiqlash uchun taqdim etish.

Vakolatli shaxs (bo‘lim) bevosita vazirlikga bo‘ysunadi va hisobdor bo‘ladi.

6. Vakolatli shaxs (bo‘limning mas’ul xodimlari) lavozimiga nomzod quyidagi talablarga javob berishi lozim:

iqtisodiyot, boshqaruv tizimi (menejment), huquq yoxud davlat boshqaruvi organi yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lishi;

ustuvor ravishda komplaens, xavflarni boshqarish, ichki audit yoxud davlat organi yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini yuridik ta’minlash yo‘nalishlari bo‘yicha kamida bir yillik ish tajribasining mavjudligi.

Vakolatli shaxs (bo‘lim) monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan quyidagi masalalarda hamkorlikni amalga oshiradi:

Institutda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va faoliyatini yuritish hamda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha bir yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ning ishlab chiqilishida;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini

kamaytirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish natijalarini o'rganishda; monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining bajarilish natijalarini baholashda;

Institut tomonidan taqdim etilgan monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotni o'rganish hamda kamchiliklar va qonunbuzarliklar aniqlangan taqdirda,

Institutga tegishli ogohlantirishlar berishda;

konsalting kompaniyalarni jalgan holda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish bo'yicha seminarlar, konferensiyalar va amaliy treninglarni tashkil qilishda; monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ijrosini monitoring qilish, raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash va baholash, monopoliyaga qarshi komplaens tizimini ishlash samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari va uni baholash tartibi hamda boshqa chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi namunaviy nizomni ishlab chiqishda.

III. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash

7. Institutda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash maqsadida vakolatli shaxs (bo'llim) tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

Raqobat to‘g‘risidagi - qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki bozorda raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish; joriy etiladigan yangi cheklovlar, ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari, litsenziyalarni, shuningdek, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni yoki litsenziyalarni olish uchun qo‘srimcha talablar yoki shartlarni hamda texnik tartibga solish talablarining joriy etilishini o‘rganish; tender va birja savdolariga qo‘yiladigan monopoliyaga qarshi talablarga amal qilinishini tahlil qilish; davlat xaridlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o‘rganish; aniqlangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini qo‘llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish; raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash; vujudga kelish ehtimoli bo‘lgan monopoliyaga qarshi xavflarni tahlil qilish va ularning ro‘yxatini komplaens-xavflar xaritasi ko‘rinishida tuzish; raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash;

Institut va uning tarkibiy bo‘limlari tomonidan o‘zining ustun holatini suiiste’mol qilishga, monopol yuqori yoki monopol past narxlarni o‘rnatishga, kontragentlarga manfaatsiz va cheklovchi shartnoma shartlarini majburan qabul qildirishga, til biriktirishlar, kelishuvlar va kelishilgan harakatlarni aniqlash, boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tovar bozoriga kirishiga to‘siqlar yaratishga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni o‘rganish;

Institutning raqobat tartib-taomillarini, shu jumladan, savdolar va birja savdolarini o‘tkazish va ularda qatnashish bo‘yicha talablarga amal qilishini o‘rganish;

vujudga kelish ehtimoli bo‘lgan monopoliyaga qarshi xavflarni tahlil qilish va ularning ro‘yxatini komplaens-xavflar xaritasi ko‘rinishida tuzish; to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash;

Institut faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan hamda rahbariyat bilan kelishilgan holda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining samarali ishlashiga qaratilgan boshqa choratdbirlar ham amalga oshiradi.

8. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish bo‘yicha aniqlanadigan xavflar vakolatli shaxs (bo‘lim) tomonidan mazkur nizomga ilovaga muvofiq darajalar bo‘yicha taqsimlanadi.

9. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi xavflari bo‘yicha o‘tkazilgan baholash ishlari asosida vakolatli shaxs (bo‘lim) tomonidan xavflar tavsifi tuziladi, unga xavflarning paydo bo‘lish sabablari va shartlarini baholash ishlari ham kiritiladi.

10. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

IV. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash.

11. Institutda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash monopoliyaga qarshi kurashish organ tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosan hisoblab boriladi.

12. Vakolatli shaxs (bo‘lim) institutda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining erishilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta) va Ibstitut rahbariyatiga bu haqida axborot kiritadi.

13. Institut monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarga erishilgani to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

V. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot

14. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflari
bo‘yicha o‘tkazilgan baholash ishlarining natijalari hamda kamaytirish bo‘yicha choratdbirlarning bajarilishi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

15. Institut tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplaens bo'yicha hisobot institutning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi kurashish organiga yuboriladi.

VI. Yakunlovchi qoidalar

16. Mazkur nizomni qo'llash bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida hamda Institutning ichki idoraviy hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

17. Mazkur nizom talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida hamda institutning ichki idoraviy hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Virusologiya ITIkda monopoliyaga qarshi
komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash
tartibi to'g'risida Nizomga
ILOVA

**Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining
buzilish darajasi bo'yicha**

NAMUNAVIY XAVFLAR TASNIFI*

Ehtimollikni baholash (yuz berish ehtimollari)	Oqibatlar darajasi		
	Past	O'rtacha	Yuqori
Yuqori ehtimollik			
O'rtacha ehtimollik			
Past ehtimollik			

* Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo'yicha xavflar tasnifi tavsiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bozor faoliyatining o'ziga xos xususiyatiga qarab o'zgartirilishi mumkin.